

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336:368(575.1)


BEKMURODOVA GO'ZAL ADHAMOVNA

**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI
MARKETING TEXNOLOGIYALARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**08.00.07-“Moliya, pul muomalasi va kredit” va 08.00.11 -“Marketing”
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTASIYASI

**Ilmiy maslahatchi: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor Sh.I. Mustafakulov**



Toshkent – 2023

001
B-49

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	17
1.1. Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari: mohiyati va ahamiyati.....	17
1.2. Banklarda marketing texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	28
1.3. Banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning xorijiy tajribasi.....	43
1-bob bo'yicha xulosalar.....	65
II-BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING USUL VA VOSITALARINI QO'LLASH ASOSLARI.....	68
2.1. Banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarini amaliyotga joriy etish metodlari va strategiyasining nazariy asoslari.....	68
2.2. Tijorat banklarida raqamli marketing strategiyalarini tuzish uslubiyoti.....	85
2.3. Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning usul va vositalari.....	103
2-bob bo'yicha xulosalar.....	123
III-BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SWOT TAHLILI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	125
3.1. Banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bosqichlari.....	125
3.2. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini amalga oshirish uslubiyoti.....	144
3.3. Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligi: hisoblash usullari va mavjud muammolar.....	165
3-bob bo'yicha xulosalar.....	183

IV-BOB. RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	186
4.1. Delfi usuli orqali tijorat banklarida raqamli bank marketing texnologiyalarini qo'llashni baholash tahlili.....	186
4.2. Tijorat banklari raqamli bank texnologiyalari samaradorligini baholash tahlili.....	209
4.3. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari asosida yangi bank mahsulotlarini joriy etishda harajatlar holatini tahlili..	219
4.4. Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini amalga oshirish tahlili.....	229
4-bob bo'yicha xulosalar.....	234
V-BOB. TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	237
5.1. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'llari.....	237
5.2. Banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarini amaliyotga joriy etish mexanizmi va uni amalga oshirish asoslari	249
5.3. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanishning konseptual asoslari.....	259
5-bob bo'yicha xulosalar.....	269
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	270
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	273
ILOVALAR.....	283

KIRISH (Dissertatsiya annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida texnologik innovasiyalarning rivojlanishi hamda kiber xavf-xatarlarning tobora avj olishi axborot texnologiyalar hamjamiyatining ilmiy, ekspert doiralari oldiga hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni qo'ymoqda. Gartner agentligining so'nggi malu'motlariga ko'ra, "global axborot texnologiya xarajatlari 2023 yilda 4,5 trillion AQSh dollarni tashkil etishi va bu 2022 yilga nisbatan 2,4 foizga ko'p bo'lishi" prognoz qilingan. Inflatsiya iste'molchilarning xarid qobiliyatini pasaytirishda va qurilma xarajatlarini kamaytirishda davom etayotgan bo'lsada, korxonalar va tashkilotlarning axborot texnologiyalariga xarajatlari yuqori bo'lib qolishi kutilmoqda¹.

Shuningdek, "Nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi"². Ushbu holatlar iqtisodiyotning lokomotivi bo'lgan bank-moliya tizimining jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanishidagi roli nechog'liq yuqori ekanligidan, binobarin, bu boradagi ilmiy izlanishlarni yangi zamonaviy formatda olib borish zarurligidan dalolat beradi. Dunyoda bank faoliyatini transformasiya qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish, kiber xavf-xatarlarni oldini olish, banklarda raqamli marketing texnologiyalarini rivojlantirish, pandemiya sharoitida banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko'lamini oshirish kabilar xalqaro darajada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning bank faoliyatida raqamli bank marketing texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, raqamli bank marketing texnologiyalarining samaradorligini baholash hamda uning bank faoliyati iqtisodiy rivojlanishiga

¹<https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2023-01-18-gartner-forecasts-worldwide-it-spending-to-grow-2-percent-in-2023>

² <https://kun.uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>